FARG‘ONA VILOYATI OLTIARIQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 21-iyul | 244-11-151-Q/25 | Oltiariq tuman hokimligi

“LOYIHA”

Tuman hokimining 2024-yil 4-iyun kungi 103-11-151-Q/24-sonli qaroriga qisman o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi nizomning 39-bandiga asosan tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida"gi Qonunining 16 va 21-moddalari, Oltiariq tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi 44-sonli umumta’lim maktabining mikrohududini belgilash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Oltiariq tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha 44-sonli umumta’lim maktabiga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosari A.Islomov, tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (M.Teshaboyev), tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman hokimining 2024-yil 4-iyun kungi 103-11-151-Q/24-sonli qaroriga qisman o‘zgartirish kiritilsin.

4. Mazkur qaror “Davr ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari A.Islomov zimmasiga yuklatilsin.

Oltiariq tumani hokimi  **Sh.Turdaliyev**

Oltiariq tumani hokimining
2025-yil 21-iyuldagi
244-11-151-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Oltiariq tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi yangi tashkil etilgan 44-umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining mikrohududlari to‘g‘risida MA’LUMOT

№	Maktab raqami	Mahalla nomi	Ko‘cha nomi	Uy raqami	Asos
1	44-maktab	Faravon MFY, Birlashgan MFY, Jo‘rak MFY	Xilol ko‘chasi	1-uydan 89-uyga qadar	21.02.2025 yil kunidagi Oltiariq tumani hokimining qarori
			Ko‘ndalang ko‘chasi	1 uydan 120-uyga qadar	
			Yoshlarobod ko‘chasi	1-uydan 98-uyga qadar	
			Tokzor ko‘chasi	1-uydan 64-uyga qadar	
			Eskiarab ko‘chasi	1-uydan 70-uyga qadar	
			Adolat yo‘li ko‘chasi	1 uydan 161-uyga qadar	
			Yangi tong ko‘chasi	1-uydan 24-uyga qadar	
			Birlashgan ko‘chasi	1-uydan 42-uyga qadar	
			Fidoiylar ko‘chasi	1-uydan 36-uyga qadar	
			Ezgulik ko‘chasi	1-uydan 28-uyga qadar	
			Kelarchi ko‘chasi	1-uydan 80-uyga qadar	
			Hazina ko‘chasi	1-uydan 98-uyga qadar	
			Jo‘rak Shirin suv ko‘chasi	1-uydan 15-uyga qadar,	
			Quyi guzar ko‘chasi	1- uydan 27 - uyga qadar	
			Kamolot ko‘chasi	1-uydan 58-uyga qadar	
			Jo‘rak ko‘chasi	1-uydan 57-	

				uyga qadar	